

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

**MAKTABGACHA TA'LIMDA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR: O'YIN VA KO'P
TILLILIK ORQALI GLOBAL KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH**

Hakimova Munira Ibrohim qizi
Sharqona Kids bog'chasi ingliz tili o'qituvchisi

Puchon Universiteti bitiruvchisi (2021)

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida psixolingvistik yondashuvlarning o'rni, xususan, o'yin asosida va ko'p tilli ta'lim orqali bolalarda global kompetensiyani shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Psixolingvistikaning nazariy asoslari, erta yoshda chet tillarini o'rganish jarayonining xususiyatlari hamda ko'p tilli muhitda tarbiyalangan bolalarning kognitiv rivojlanishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yin metodlari va ko'p tillilik maktabgacha yoshdagi bolalarning lingvistik, madaniy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. XXI asr ta'limi bolalarda faqat bilim emas balki global kompetensiya, muloqot madaniyati, ko'p tillilikni rivojlantirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'limda psixolingvistik yondashuvlar asosida o'yin metodlari qo'llanganda, bolalarda til o'zlashtirish jarayoni tabiiy, samarali va ijodkorlikka boy bo'ladi va bu muhitda katta bo'lgan bolalar kelajakda global miqyosda raqobatlashishga qodir individual shaxs sifatida takomillashadilar.

Muammo va ilmiy izlanish zaruratini asoslash

Bugungi globallashtirish sharoitida ko'p tillilik, tezkor axborot almashinuvi va madaniyatlararo muloqot kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu bois, inson tafakkuri va nutqi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish, psixik jarayonlarning til egallashdagi rolini tahlil qilish ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim va tarbiya, psixolingvistika, o'yin metodlari, ko'p tillilik, global kompetensiya, bolalar rivojlanishi.

Kirish

Bugungi globallashtirish sharoitida ta'lim jarayoni nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Shu sababli maktabgacha ta'limda psixolingvistik yondashuvlarni joriy etish va bolalarda erta yoshdan ko'p tilli kompetensiyani rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Psixolingvistika — til va tafakkur o'rtasidagi aloqani o'rganuvchi fan bo'lib, u ta'lim jarayonida bola psixologiyasi va lingvistikasini uyg'unlashtirish imkonini beradi. O'yin asosidagi metodlar bolalarning tabiiy rivojlanishiga mos bo'lib, ularning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Ko'p tillilik esa, o'z navbatida, bolalarda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi va global kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Psixolingvistika inson nutq faoliyatining shakllanish jarayonlarini o‘rganadigan nisbatan yangi fan sohasi hisoblanadi. Bu soha psixologiya va lingvistika fanlarining qo‘shilishidan yuzaga kelib, bugungi kunda ta‘lim, nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim jarayonida bolalarning tilni egallash mexanizmlarini o‘rganish, ularning psixik rivojlanishi va nutq faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash global kompetensiyalarni shakllantirishda beqiyos rol o‘ynaydi. Shu sababli psixolingvistik yondashuv ta‘lim sifatini oshirishda muhim vositalardan biri sifatida qaralmoqda.” Psixolingvistika bugungi kunda tilshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan dolzarb sohalardan biridir. Inson nutq faoliyatining shakllanishi, uni idrok etish va ishlab chiqish mexanizmlarini chuqur o‘rganish, nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning tilni egallash jarayonini samarali tashkil etish psixolingvistik yondashuvsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Asosiy qism

1. Psixolingvistik yondashuvlarning nazariy asoslari

Psixolingvistika til o‘rganish jarayonida insonning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini o‘rganadi. Maktabgacha yosh davrida bola miyasi eng faol rivojlanadigan bosqich bo‘lib, bu davrda tilni o‘rganish jarayoni tez va samarali kechadi (Chomsky, 1965; Vygotsky, 1978).

Psixolingvistik yondashuvlarning nazariy asoslari, avvalo, inson nutq faoliyatini ong va tafakkur jarayonlari bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu yondashuvlar nutqning faqat til tizimidagi shakllanishini emas, balki insonning idrok, xotira, diqqat va tafakkur kabi kognitiv jarayonlari bilan qanday uyg‘unlashishini tushuntiradi. Shuningdek, psixolingvistika nazariy jihatdan psixologiya, lingvistika, neyrobiologiya va ta‘limshunoslik fanlari bilan kesishib, interdisciplinar xususiyatga ega bo‘lib, bu uni boshqa yondashuvlardan farqlab turadi.

Nazariy jihatdan psixolingvistik yondashuvlar inson tilini o‘zlashtirish jarayonida uch bosqichni ajratib ko‘rsatadi:

1. **Nutqni qabul qilish (perseptiv jarayonlar)** – tovushlarni idrok etish va ularni ma‘no bilan bog‘lash.
2. **Nutqni ishlab chiqish (produktiv jarayonlar)** – fikrni shakllantirib, uni grammatik tuzilma va leksik birliklar yordamida ifodalash.
3. **Nutq faoliyatini nazorat qilish (metakognitiv jarayonlar)** – shaxsning o‘z nutqini tekshirish, tuzatish va ongli ravishda boshqarish jarayoni.

Bu nazariy asoslar amaliy jihatdan bolalarda ikkinchi tilni o‘zlashtirish, ona tili rivoji, nutq buzilishlarini tuzatish, shuningdek, samarali kommunikatsiyani shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘yin, vizual qo‘llanmalar va ko‘p tillilik muhitini yaratish orqali psixolingvistik tamoyillarning qo‘llanishi bolalarning til qobiliyatini tabiiy va izchil rivojlantirishga yordam beradi.

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Shunday qilib, psixolingvistik yondashuvlarning nazariy asoslari til va tafakkurning o‘zaro aloqadorligini ilmiy asosda tushuntirib berishi bilan birga, zamonaviy ta’lim jarayonida tilni o‘rgatishning samaradorligini oshirish uchun ham mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Psixolingvistikani yanada ilmiy va tarixiy jihattan olib qarasaq bu – til va psixika o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganuvchi fan bo‘lib, uning nazariy asoslari kognitiv psixologiya, lingvistika, neyropsixologiya va pedagogika yutuqlariga tayanadi. Asosiy maqsad – insonning nutq faoliyatini, uni idrok etish, tushunish va ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda izohlashdir. Til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi masalasi qadimdan faylasuflar va tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lgan bo‘lsa-da, psixolingvistika XX asr o‘rtalaridan boshlab alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi.

Psixolingvistika tarixan uch asosiy bosqichni bosib o‘tgan: birinchisi – **biheviorizm davri** (B. Skinner maktabi), ikkinchisi – **kognitiv inqilob davri** (N. Xomskiy, J. Piage nazariyalari), uchinchi – **interdisiplinar integratsiya davri**, ya’ni neyropsixologiya, neyrolingvistika va sotsiopsixologiya bilan uyg‘unlashgan zamonaviy bosqichdir.

Nazariy jihatdan psixolingvistik yondashuvlar bir nechta paradigmalarga asoslanadi:

1. **Bihevioristik yondashuv** – tilni o‘rganish va nutq faoliyatini shartli reflekslar, takrorlash va mustahkamlash jarayoni sifatida talqin qiladi. Bu qarash B. Skinner maktabida keng tarqalgan bo‘lib, tilning tashqi kuzatiladigan xatti-harakatlar orqali shakllanishini asoslaydi.
2. **Kognitiv yondashuv** – til va tafakkur jarayonlari ong faoliyati, idrok, xotira, diqqat va aqliy operatsiyalar bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. J. Piage, N. Xomskiy, A. Leontyev singari olimlar ushbu yondashuv vakillari bo‘lib, tilni inson tafakkurining ajralmas qismi sifatida izohlashgan.
3. **Neyropsixolingvistik yondashuv** – nutq faoliyati va tilni o‘zlashtirishni miyaning fiziologik faoliyati bilan bog‘laydi. Broka va Vernike markazlari faoliyati, nutq buzilishlari (afaziya, disleksiya va boshqalar)ni o‘rganish orqali til jarayonlarining neyrobiologik asoslari aniqlanadi.
4. **Ijtimoiy-psixolingvistik yondashuv** – tilni jamiyat, madaniyat va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanuvchi psixik jarayon sifatida talqin qiladi. V. Vigotskiy va L. S. Rubinshteyn nazariy qarashlarida til ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida baholangan.

Psixolingvistik yondashuvlarning nazariy asoslari shuni ko‘rsatadiki, tilni o‘zlashtirish jarayoni ko‘p omillilik xususiyatiga ega: biologik, psixologik va ijtimoiy komponentlarning o‘zaro ta’siri natijasida nutq rivojlanadi. Shu jihatdan, psixolingvistika tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki insonning ong va shaxsiyati shakllanishida muhim omil sifatida ko‘rib chiqadi.

Amaliy qo‘llanish nuqtayi nazardan, psixolingvistik nazariyalar bolalarda ikkinchi tilni o‘rgatishda, logopedik mashg‘ulotlarda, psixoterapiya jarayonlarida hamda nutq va yozuvdagi nuqsonlarni bartaraf etishda keng qo‘llanadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim tizimida psixolingvistik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan metodikalar tilni o‘qitishda o‘yin, muloqot va interaktiv texnologiyalarni qo‘llashni taklif qiladi.

Xulosa qilib aytganda, psixolingvistik yondashuvlarning nazariy asoslari inson tilini o‘zlashtirish, uni qo‘llash va nazorat qilish jarayonlarini tushuntirib berish bilan birga, ta’lim va tarbiya jarayonida

tilni samarali o‘rgatishning ilmiy-metodik negizini yaratadi. Bu esa nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, psixologiya va kommunikatsiya sohalarida ham katta ahamiyat kasb etadi.

2.O‘yin asosida ta’limning nazariy asoslari va ilmiy ahamiyati

O‘yin faoliyati inson psixikasining eng qadimiy va tabiiy faoliyat shakllaridan biri bo‘lib, ta’lim jarayonida u muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda o‘yin shaxsning ijtimoiylashuvi, nutqiy faoliyati, muloqot ko‘nikmalari va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yetakchi omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. V. Vigotskiy ta’kidlashicha, o‘yin – bu bolaning “yaqin rivojlanish zonasi”ni ochib beruvchi faoliyat bo‘lib, u orqali bola murakkab bilimlarni soddalashtirilgan, qiziqarli shaklda o‘zlashtiradi.

O‘yin asosida ta’limning nazariy asosi uchta muhim konsepsiyaga tayanadi:

1. **Kognitiv konsepsiya** – o‘yin jarayonida bola idrok, xotira, diqqat va tafakkur kabi kognitiv jarayonlarni rivojlantiradi. Masalan, didaktik o‘yinlarda obrazli fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish kuchayadi.
2. **Ijtimoiy-psixologik konsepsiya** – o‘yin bolani jamoada faol bo‘lishga, o‘z fikrini ifoda etishga, hamkorlikda qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Shu jihatdan o‘yin asosida ta’lim ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.
3. **Emotsional-motivatsion konsepsiya** – o‘yin jarayoni bolada ijobiy his-tuyg‘ular uyg‘otadi, o‘quv faoliyatiga ichki motivatsiyani kuchaytiradi. O‘yin orqali ta’lim olish jarayoni majburiy emas, balki qiziqarli mashg‘ulot sifatida qabul qilinadi.

O‘yin asosida ta’limning ilmiy ahamiyati shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladi va tabiiy o‘rganish mexanizmlarini ishga soladi. Shuningdek, o‘yin faoliyati orqali bola:

- til va nutqni tezroq o‘zlashtiradi;
- ijodiy va mustaqil fikrlashga o‘rganadi;
- axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi;
- ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘yin texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Jumladan, **didaktik o‘yinlar, rol o‘ynash o‘yinlari, muammoli vaziyatli o‘yinlar va kompyuter o‘yinlari asosidagi interaktiv metodlar** o‘quvchilarning bilim faoliyatini kuchaytiradi. O‘yin asosida ta’lim, ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichida samarali bo‘lib, bola tafakkuri va shaxsiy rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Hozirgi kunda bu metodlar zamonaviy ta’limni o‘z ichiga oladi.O‘yin asosida ta’lim – bu shunchaki ko‘ngilochar faoliyat emas, balki shaxsning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvdir. O‘yin orqali o‘qitish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning samarali yo‘lidir.

3.Ko‘p tillilikning afzalliklari

Ko‘p tillilik (bilingvizm va polilingvizm) bugungi globallashuv davrida shaxs rivojlanishi va ijtimoiylashuvining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Til shaxsning dunyoqarashi, tafakkuri va madaniy identifikatsiyasida asosiy vosita bo‘lib, bir nechta tillarda muloqot qila olish imkoniyati insonning kognitiv hamda sotsial kompetensiyalarini sezilarli darajada boyitadi. Shu bois ko‘p tilli muhitda tarbiyalangan bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi monolingval tengdoshlariga nisbatan ko‘proq afzalliklarga ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

V. Vigotskiy ta’kidlashicha, til shaxs tafakkurining tashuvchisi bo‘lib, har bir qo‘shimcha til bolaning tafakkur jarayonlarini boyitadi va dunyoni idrok etish doirasini kengaytiradi. N. Xomskiy nazariy qarashlariga ko‘ra, inson ongida universal grammatik tuzilma mavjud bo‘lib, bir nechta tillarni erta yoshdan o‘zlashtirish shu mexanizmni yanada faol harakatga keltiradi. Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar ham ko‘p tilli bolalarda miya plastiklik darajasi yuqoriligini, xotira va diqqatning kuchliroq rivojlanishini tasdiqlaydi.

Ko‘p tilli muhitda tarbiyalangan bolalarning afzalliklari quyidagilarda yaqqol ko‘rinadi:

1. **Kognitiv rivojlanish** – Ko‘p tillilik miyada kodlash va dekodlash jarayonlarini kuchaytirib, bolaning diqqatni jamlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bilingval bolalar mantiqiy masalalarni yechishda tezroq va samaraliroq natijalarga erishadi.
2. **Metalingvistik kompetensiya** – Ko‘p tilli bola til tizimining tuzilishi, grammatik va semantik xususiyatlarini chuqurroq anglaydi. U bir tilni o‘rganish orqali boshqa tilni o‘zlashtirishga tayyor bo‘ladi.
3. **Ijtimoiy va madaniy moslashuvchanlik** – Bir nechta tillarni bilgan bola turli madaniyat va jamoalarga tez moslasha oladi, global kommunikatsiyada erkin ishtirok etadi. Bu esa shaxsning ijtimoiy kapitalini oshiradi.
4. **Shaxsiy rivojlanish va kasbiy imkoniyatlar** – Ko‘p tillilik zamonaviy mehnat bozorida eng muhim raqobatbardosh ko‘nikmalardan biridir. Bilingval bolalar kelajakda kengroq akademik va professional imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

Ko‘p tillilikning yana bir muhim afzalligi shundaki, u **nutq buzilishlari profilaktikasi va demensiya xavfini kamaytirish** bilan bog‘liq. Psixolingvistik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ko‘p tilli shaxslarning miyasi qarilik davrida ham faolroq bo‘ladi.

Ko‘p tillilik bu ko‘p imkoniyatlar kalitidir, ko‘p tilli muhitda tarbiyalangan bolalar nafaqat til kompetensiyalariga, balki kengroq kognitiv, ijtimoiy va madaniy ustunliklarga ham ega bo‘ladilar. Shu bois ta’lim va tarbiya jarayonida ko‘p tillilikni qo‘llab-quvvatlash shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi. Ko‘p tilli muhitda tarbiyalangan bolalar:

- kuchli kognitiv moslashuvchanlikka ega bo‘ladilar;
- madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini tezroq egallaydilar;
- global kompetensiyaga ega bo‘lish uchun asosiy tayyorgarlikka ega bo‘ladilar.

5. Global kompetensiyani shakllantirish

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Bolalarda global kompetensiyani shakllantirish

Globalashuv davrida ta’limning eng muhim vazifalaridan biri – bolalarda **global kompetensiyani** shakllantirishdir. Bu tushuncha bolaning madaniy xilma-xillikni qadrlashi, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi, turli tillar va madaniy muhitlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini anglatadi.

Nazariy asoslar. UNESCO (2018) ma’lumotiga ko’ra, global kompetensiya shaxsning “dunyo muammolarini tushinishi va ularni hal qilishda hamkorlikka tayyor bo’lishi”ni taqozo etadi. OECD (2019) esa global kompetensiyani yoshlarning XXI asr ko’nikmalarini egallashida hal qiluvchi omil sifatida baholaydi.

Psixolog L. Vygotskiy o’zining **sotsiokultural nazariyasida** bolalarning bilim va kompetensiyalari ijtimoiy muloqot orqali shakllanishini ta’kidlab:

“Bola o’zi yolg’iz bajara olmaydigan ishini kattalar yoki tengdoshlar bilan hamkorlikda bajarib o’rganadi” – deya qayd etgan.

Bu fikr global kompetensiyani shakllantirishda hamkorlik va madaniyatlararo muloqotning ahamiyatini ko’rsatadi.

Amerikalik pedagog J. Dewey esa tajribaviy ta’limga urg’u berib:

“Ta’lim hayotga tayyorgarlik emas, balki hayotning o’zi” – degan.

Shu bois, bolalarning turli madaniy muhitlarda faol ishtiroki ularning global kompetensiyasini tabiiy ravishda rivojlantiradi.

Shuningdek, H. Gardnerning **ko’p qirrali intellekt nazariyasida** bola faqat akademik bilimlar emas, balki lingvistik, ijtimoiy va madaniy intellekt orqali ham global dunyoqarashni rivojlantirishi ta’kidlangan.

Amaliy jihatlar. Bolalarda global kompetensiyani shakllantirish quyidagi yo’llar orqali amalga oshiriladi:

- **Ko’p tillilik** – chet tillarini o’rganish orqali dunyo xalqlarining qadriyatlariga ochiqlikni rivojlantirish;
- **O’yin asosidagi ta’lim** – madaniyatlararo rolli o’yinlar, xalq ertaklari va hikoyalar orqali tolerantlikni shakllantirish;
- **Axborot texnologiyalari** – bolalarning global axborot makoni bilan bog’lanishi va media savodxonlikni oshirish;
- **Hamkorlik** – ijtimoiy loyihalarda, guruh mashg’ulotlarda jamoaviy fikrlashni o’rgatish.

Demak, bolalarda global kompetensiyani shakllantirish – ularni ijtimoiy mas’uliyatli, tolerant va global muammolarga befarq bo’lmagan shaxs sifatida tarbiyalash demakdir. Buyuk olimlar – Vygotskiy, Dewey, Gardner kabi mutafakkirlarning tajribaviy va nazariy qarashlari shuni ko’rsatadiki, global kompetensiya bolaga faqat bilim berish orqali emas, balki **tajriba, muloqot va hamkorlik muhitida** shakllanadi.

Natijalar va munozara

O‘tkazilgan nazariy tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, psixolingvistik yondashuvlarni o‘yin va ko‘p tillilik asosida amalga oshirish bolalarning til rivojlanishida samarali vosita hisoblanadi.

Birinchidan, o‘yin asosidagi ta‘lim jarayonida til o‘zlashtirish tabiiy va qiziqarli shaklda kechadi. Vygotskiy ta‘kidlaganidek, o‘yin bolalarning “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytirib, ular mustaqil bajara olmaydigan faoliyatlarni hamkorlikda amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa til materialining tezroq va samaraliroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, ko‘p tillilik bolaning kognitiv salohiyatini kengaytiradi. Bialystok (2001) tadqiqotlariga ko‘ra, ikki yoki undan ortiq tilni biladigan bolalarda diqqatni boshqarish, muammolarni yechish va ijodiy fikrlash qobiliyatlari yuqoriroq darajada shakllanadi. Shu sababli, ko‘p tillilik nafaqat lingvistik, balki umumiy intellektual rivojlanishga ham xizmat qiladi.

Uchinchidan, o‘yin va ko‘p tillilik orqali turli madaniy qadriyatlar bilan tanishish bolalarda global kompetensiya, tolerantlik va madaniy xilma-xillikka ochiqlikni shakllantiradi. Deweyning “ta‘lim hayotning o‘zi” degan g‘oyasi shuni ko‘rsatadiki, bolalarni xalqaro muloqotga tayyorlash jarayoni aynan o‘quv muhitida boshlanishi kerak.

Biroq, mazkur yondashuvlarning samaradorligi bir qator shartlarga bog‘liq. Eng avvalo, ko‘p tillilikni joriy etishda malakali pedagoglarning mavjudligi, sifatli metodik qo‘llanmalar va oila tomonidan qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, yuzaki yondashuv tilni o‘zlashtirish jarayonida qiyinchiliklar tug‘dirishi va kutilgan natijalarni bermasligi mumkin.

Natija va mulohazalarni birlashtirgan holda, o‘yin va ko‘p tillilik asosida amalga oshirilgan psixolingvistik yondashuv bolalarda tilni o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi, kognitiv va ijodiy salohiyatni oshiradi, madaniy ochiqlik va global fikrlashni shakllantiradi. Shu jihatdan, ushbu yondashuv kelajakda xalqaro ta‘lim va mehnat bozorida raqobatbardosh avlodni tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta‘lim jarayonida psixolingvistik yondashuvlarni qo‘llash bolalarda tilni o‘zlashtirish, kognitiv salohiyatni rivojlantirish va global kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘yin asosidagi metodlar hamda ko‘p tillilikni erta yoshdan joriy etish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Maktabgacha ta‘lim muassasalarida psixolingvistik yondashuvlarni keng qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;
- O‘yin va ko‘p tillilik asosida ta‘lim jarayonini tashkil etishda pedagoglarning malakasini oshirish;
- Xalqaro tajriba va innovatsion dasturlarni ta‘lim tizimiga integratsiya qilish;

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

- Ota-onalar ishtirokini kuchaytirish orqali bolalarda global kompetensiyani shakllantirishga qo‘shimcha sharoit yaratish.

Xulosa qilib aytganda, psixolingvistik yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, kelajak avlodni global muhitga moslashgan, raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Bialystok, E. (2001). Bilingualism in Development: Language, Literacy, and Cognition. Cambridge University Press.
4. Cummins, J. (2000). Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Multilingual Matters.
5. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
6. UNESCO (2019). Global Education Monitoring Report: Migration, Displacement and Education. Paris: UNESCO Publishing.